

DAUN SINDROMI BILAN TUG'ILGAN CHAQALOQLAR

Farmonova Ruxshona Farrukhovna

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Pediatriya fakulteti 104-guruhan talabasi

Daminov Muslimbek Asadullayevich


Tibbiy biologiya va umumiy genetika kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqola Daun sindromi bilan tug'iladigan chaqaloqlar haqida o'rjanilgan va qisqacha bayon etlilgan.

Kalit so'zlar: daun sindromi, gipotensiya, braximezofalangiya, asfiksiya

Daun kasalligi. Bu kasallik angliyalik vrach L.Daun tomonidan 1866-yili aniqlangan edi. Bunday kasallikkarda 46 o'rniiga 47 xromosoma kuzatiladi.

=



Bu kasallik autosomalar sonining o'zgarishi bilan yuzaga chiqqanligi uchun erkaklarda ham, ayollarda ham kuzatiladi. Kasal bolaning bo'yisi past, kallasi kichik va yumaloq, buruni kalta, ko'z kesimi egri, quloiq suprasi kichik, og'zi yarim ochiq, og'zidan ko'pincha tili chiqib turadi. Til, teri, lablari quruq va ko'pincha ko'zida g'ilaylik bo'ladi. Tishlar bir tekisda bo'lmaydi. Boshida sochlari siyrak, silliq. Qo'l barmoqlari kalta va yo'g'on bo'lib, beshinchi barmoq juda ham kichik. Kaft terisida faqat ko'ndalang ketgan egatcha bo'ladi. Barmoq uchlari terisidagi chiziqlarning shakllari asosan ulnar tomonga ochiladigan ilmoqsimon bo'ladi. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlarning 4-6%ida tug'ma nuqsonlar uchrayapti. Daun Sindromi(DS) - tug'ilmasdan oldin yoki tug'ilgandan keyin davolab bo'lmaydigan kasallikkadir. Bu kasallik oila va jamiyat uchun katta muammo hisoblanadi.

Ishning maqsadi: Daun Sindromi bilan tug'ilgan chaqaloqlarda klinik-anamnestik tadqiqot o'tkazish.

Tadqiqot usullari: 13 nafar Daun Sindromi bilan tug'ilgan chaqaloqlarda tadqiqot ishlarini olib bordik. Biz klinik va anamnestik ma'lumotlarni o'rganib chiqdik va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning klinik tekshiruvini o'tkazdik.

Tadqiqot natijalari: Daun Sindromi diagnostikasi anamnez, klinik va genetik ma'lumotlar asosida tadqiqot olib borildi. Biz tadqiqot olib borgan 5ta bolada (41,6%) bu kasallik irsiyelanish tufayli kelib chiqgan, 6tasida (50%) irsiy bo'limgan. Onalarning anamnezidan kasalikka olib kelishi mumkin bo'lgan xavf omillari aniqlangan: onaning yoshi 35dan kattaligi 5 bolada (41,6%), onadagi yomon odatlar tufayli 3 bolada (25%), surunkali kasalliklar tufayli 1ta (8,3%) onada, irsiy kasalliklar tufayli 3 bolada (25%) kelib chiqganligi aniqlandi. Bolalarda tashqi belgilarida o'zgarshlar va tug'ma nuqsonlar aniqlandi. Shulardan 6 ta (50%) bolalar orasida tug'ma yurak nuqsonlari aniqlandi, 4 tasida (33,3%) bolada yurak qorinchasi septal nuqsoni, 2 tasida (16,6%) atriyal septal nuqsoni, 2 tasida (16,6%) o'n ikki barmoqli ichakning atreziyasи va stenozi, 3 tasida (25%) bronxosefaliya aniqlandi. Tashqi belgilar orasidan 10 bolada (83,3%) epikantus, 8 tasida (66,6%) bo'g'implarning gipermobilligi, 8 tasida (66,6%) mushak gipotenziyasi, 8tasida (66,6%) yassi ensa, 9tasida (75%) kalta qo'l-oyoqlar, 11 tasida (91,6%) braximezofalangiya kuzatildi. Tekshiruvdan o'tgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar orasida 22-28 haftada 7 tasi (58,3%), 35-36 haftada 5 tasi (41,6%), o'rtacha darajadagi asfiksiya bilan 7 tasi (58,3), og'ir darajali asfiksiya bilan 3 tasi (25%) kasallanganligi aniqlandi.

**Yangi tug'ilgan bolalar orasida Daun kasalligining uchrash chastotasi.
(Angliyada o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi)**

Onaning yoshi	DS ning uchrash chastotasi
15-19	3 : 10 000
20-24	4 : 10 000
25-29	4 : 10 000
30-34	11 : 10 000
35-39	33 : 10 000
40-44	124 : 10 000
45 va undan katta	312 : 10 000

Xulosa: Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatdiki Daun Sindromi ko'pincha tug'ma yurak nuqsonlari bilan bog'liqligi va ular orasida eng keng tarqalgani yurak qorinchasi septal nuqsoni va atriyal septal nuqsoni ekanligi aniqlandi. Daun kasalligi bor bolalarda immunitet past bo'lganligi uchun ular har xil yuqumli

kasalliklarga bardosh bera olmasdan yoshligidayoq o'lib ketadilar. Hozircha bu kasallikning davolash usullari aniq emas.

ADABIYOTLAR

1. Tibbiy biologiya va genetika. P.X.Xolikov, A.Q.Qurbanov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova
2. Pediatric Pharmacology 2020. Tom 17. N 4.